

Ushbu xabarni ko'rishda muammoga duch kelsangiz, [ushbu havolaga o'ting](#)



Axborot xabarnomamizning o'n ikkinchi soniga xush kelibsiz!

Biz [Yevropa Ittifoqining](#) (YEI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan o'n ikkinchi axborot xabarnomani e'tiboringizga havola etishdan mamnunmiz. Loyiha O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgandir.

Ushbu sonda asosiy e'tibor 2023-yilning iyul-sentabr oylari oralig'ida O'zbekistonga ko'rsatilgan yordamga qaratiladi. Ushbu chorakdagi eng muhim voqealardan biri O'zbekistonga uning tovarlar uchun tariflar liniyalari xususidagi majburiyatlari ro'yxati bo'yicha mamlakat manfaatlarini JST a'zolarining talablari bilan muvozanatlashtiradigan munosib taklifga erishishda ko'rsatilgan yordam bo'ldi. Yana bir diqqatga sazovor voqea sanitariya va fitosanitariya (SFS) sohasidagi ko'magi - SFS masalalari bilan shug'ullanadigan tuzilmalarni yaratish bo'yicha huquqiy hujjat ko'rib chiqildi va mansabdor shaxslar uchun SFS bo'yicha Milliy axborot almashish markazi va Milliy xabar berish vakolatli organini tashkil etish va boshqarish bo'yicha trening o'tkazish taklif etildi. Shuningdek, ushbu chorakda Bern shahridagi Jahon savdo institutining Xalqaro huquq va iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha magistrlik dasturiga 2023-2024 o'quv yilidan davlat xizmatchisini qabul qilishga ko'maklashildi. Loyiha doirasida hududlardagi xususiy sektor

vakillari uchun qishloq xo'jaligi sohasida JST masalalari bo'yicha bir qator seminarlar yakunlandi.

Ushbu axborot xabarnomasi RUS va INGLIZ tillarida ham mavjud.

Loyihimiz haqida batafsil ma'lumotni [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillarida veb-saytlarimizdan olishingiz mumkin.

Barcha savollar bo'yicha [quyidagi elektron manziliga murojaat qiling:](#)

WTOAccessionUZB@intracen.org

[Aloqada qoling: #WTOAccessionUZB](#)

Axborot xabarnomamizni o'qib, mamnun bo'lasiz degan umiddamiz!

Jamoamizdan IZOH:

(ING)

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).

(RUS)

Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, [пройдите по этой ссылке](#).

(O'ZB)

Siz axborot xabarnoma pochta ro'yxatimizga bizning tadbirlarning birida ishtirok etganligingiz natijasida kiritilganligingizni eslatib o'tamiz. Ushbu obunani bekor qilmoqchi bo'lsangiz, keltirilgan havola orqali uni rad qilishingiz mumkin.

BAJARILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN YUTUQLAR

Loyiha bir qator belgilangan maqsadlar bo'yicha faoliyat olib boradi:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

[Jahon savdo tashkilotiga](#) a'zo bo'lish jarayonida unga qo'shilayotgan mamlakatning amaldagi savdo-iqtisodiy qonunlari va siyosati muhokamaning diqqat markazida turadi va a'zolik shartlari ular asosida kelishiladi. Bu ko'p tomonlama muzokaralar Ishchi guruh (IG) yig'ilishlari zahirida amalga oshirilmoqda va loyiha O'zbekistonga JSTga a'zo bo'lishning

ushbu jarayoniga tayyorgarlik ko'rishda yordam bermoqda. O'tgan chorak davomida loyiha IGning 6-yig'lishida yuzaga kelgan **savollarga javoblarni** tayyorlash va ko'rib chiqishga yordam berdi, bu esa IGning 7-yig'lishi davomidagi muzokaralar sessiyasi uchun asos bo'ladi. Joriy chorakda loyiha O'zbekistonga mamlakat JSTga a'zo bo'lganida import qilinadigan tovarlar uchun olinadigan bojlarni belgilovchi **tovar majburiyatlari ro'yxatini tuzishda yordam** bera boshladi.

Loyiha, shuningdek, **qishloq xo'jaligi va xizmatlar savdosi** sohalarida muzokaralar olib borish bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatmoqda. JST bo'yicha muzokaralarda tegishli hamkor davlatlarning yondashuvlarini baholash orqali O'zbekiston ushbu sohalarda egallashi mumkin bo'lgan tegishli muzokara pozitsiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lish uchun davlatning mavjud milliy qonunlari JST kelishuvlariga muvofiqligi ta'minlanishi ham kerak. O'zbekistonning qonunlarini qayta ko'rib chiqish orqali loyiha mamlakatga JSTga a'zo bo'lish talablarining ushbu jihatini bajarishga yordam beradi.

O'tgan chorakda **moliya va sug'urta sohalariga alohida e'tibor qaratgan holda xorijiy firmalarning O'zbekiston bozoriga kirishini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni** baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazish so'rovi kelib tushdi. Ushbu tadqiqotning ko'lamini va shartlari benefitsiarlar bilan muhokama qilinmoqda.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslarini tushunish darajasini oshirish

Davlat mansabdor shaxslarini JST kelishuvlarini amalga oshirishning texnik jihatlarini boshqarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish uchun loyiha texnik yordam ko'rsatish orqali davlat organlarining JST talablari bo'yicha malakasini oshirishga yordam beradi. Shu maqsadda loyiha sentabr oyida boshlangan 2023-24 o'quv yilida Shveytsariyaning Bern shahridagi Jahon savdo institutida **Xalqaro huquq va iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha 2023-2024 o'quv yilidan boshlab magistrlik dasturiga O'zbekiston hukumati xodimining o'qishga qabul qilinishiga** yordam berdi.

Shuningdek, xodimning dasturda ishtirok etishini ta'minlash uchun uni oylik stipendiya bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdoni soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Chorak davomida O'zbekistonning STT va SFS institutlarini mustahkamlash, shuningdek, ushbu murakkab sohalarda xalqaro qoidalarni qo'llashning texnik jihatlarini hal qilish uchun zarur salohiyatni shakllantirish bo'yicha sa'y-harakatlar faol davom ettirildi.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganidan so'ng SFS bilan bog'liq so'rovlarni ko'rib chiqish uchun Milliy xabar berish vakolatli organi (MXBVO) va Milliy axborot almashish markazini (MAAM) joylashtirish uchun Milliy axborot markazini tashkil etilishi majburiy qadamdir. Ushbu markazini yaratishni osonlashtirish uchun loyiha chorak davomida **Milliy axborot markazini tashkil etish bo'yicha huquqiy hujjatni ko'rib chiqdi**. Shundan so'ng u huquqiy hujjatni JSTning SFS kelishuvi bilan muvofiqlashtirish bo'yicha ilg'or xalqaro amaliyotga mos keladigan ekspert xulosasi va tavsiyalarini taqdim etdi. Bundan tashqari, 12 nafar texnik xodim uchun MXBVO va MAAMni tashkil etish va faoliyatini yuritish bo'yicha to'rt kunlik seminar bo'lib o'tdi. Shuningdek, ular JSTning SFS va STT bo'yicha choralarini raqamli kuzatish imkonini beruvchi yangi ePing platformasi bilan tanishdilar.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va aholi salomatligi qo'mitasining so'roviga binoan **Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifati to'g'risidagi qonun** loyihasi ham ikkinchi marta ko'rib chiqildi. Ushbu qo'mita va XSM ekspertlari o'rtasida JST talablarini bajarish bo'yicha mamlakatning ustuvor yo'nalishlarini oqilona hisobga olinadigan maqbul natijaga erishish maqsadida uchrashuvlar o'tkazildi. Soha vakillari salohiyatini oshirish uchun loyiha STT va SFS bilan bog'liq bir qator mavzular bo'yicha o'zining texnik seminarlarini davom ettirdi (qo'shimcha ma'lumot uchun bizning [video](#) va [veb-hikoyamizga](#) qarang). Ushbu chorakda 2023-yilning 31-iyulidan 4-avgustigacha O'simliklar karantini va himoyasi agentligi mutaxassislari uchun **Meva va sabzavotlarni xavf-xatarga asoslangan nazorat qilish bo'yicha Yevropa Ittifoqi amaliyotiga**

bag'ishlangan besh kunlik seminar o'tkazildi. Loyiha ushbu seminarda 12 nafar hududiy inspektorlarning ishtirok etishiga ham ko'maklashdi.



Yevropa Ittifoqining Meva va sabzavotlarning xavf-xatarga asoslangan nazorati bo'yicha amaliyotiga bag'ishlangan SFS ekspert seminari ishtirokchilari. Fotosurat: XSM

Savdodagi texnik to'siqlar sohasida 2023-yilning iyul-sentabr oylari orasida **Maxsus xalqaro standartlashtirish organlari tomonidan qabul qilingan va qo'llab-quvvatlanadigan xalqaro standartlar** bo'yicha bir qator onlayn treninglar o'tkazildi. Chorak davomida rejalashtirilgan beshta modul taqdim etildi va ular quyidagilarni qamrab oldi: standartlarni ishlab chiqish jarayoni va ularni qo'llash; standartlarning afzalliklari; va O'zbekistonning eng yirik eksport bozorlaridan biri bo'lgan Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llaniladigan standartlashtirish asoslarini tahlil qilish. Shuningdek, quyida bizning videomizni tomosha qilishingiz va STT bo'yicha ushbu treninglar qatoridagi avvalgi seminarlar bo'yicha bizning [veb-hikoyamizda](#) o'qishingiz mumkin).



Yevropa Ittifoqining STT asoslariga bag'ishlangan seminar. Video: XSM

MAQSAD 5

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri xususiy sektor vakillarining JSTga a'zo bo'lish oqibatlarini va O'zbekistonning jahon savdosidagi ishtiroki natijasida ishbilarmonlar uchun qanday imkoniyatlar yaratilishi mumkinligi haqida xabardorligini oshirishdan iborat. Mamlakatning turli hududlarida xususiy sektor ishtirokchilari uchun JSTning qishloq xo'jaligi qoidalari bo'yicha tashkil etilgan bir qator o'quv seminarlari o'tgan chorakda yakunlandi va yakuniy seminarlar iyul oyida Farg'ona, Andijon, Namangan, Navoiy, Buxoro va Toshkentda bo'lib o'tdi (to'liq hikoyani [shu yerda](#) ko'ring). Yanvar oyida boshlangan va jami 13 ta hududda o'tkazilgan seminarlarda 200 dan ortiq xususiy sektor vakillari ishtirok etdi.

Shuningdek, seminarlar davomida ishtirokchilarga Jahon savdo tashkiloti va uning faoliyati to'g'risida batafsilroq ma'lumot olish imkonini beruvchi o'zbek tiliga tarjima qilingan JSTga a'zo bo'lish va JSTning huquqiy asoslari haqida ma'lumotlardan iborat risola taqdim etildi.



Xususiy sektor vakillari 2023-yil iyul oyida Navoiy shahrida o'tkazilgan qishloq xo'jaligi savdosiga bag'ishlangan seminarida. Fotosurat: XSM

Axborot xabarnomasidan voz kechmoqchi bo'lsangiz, [ushbu havolaga o'ting](#)